

№1, 2022 y. 28-yanvar

Dunyodagi fanlar  
akademiyalari

# DAYJEST

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi  
Ilmiy-texnik axborot markazi

Toshkent - 2022 y.

*"Ertangi kunini tasavvur qilgan, raqobatbardosh bo'laman degan davlat albatta ilmga e'tibor berishi kerak. Sizlarning tilingizda aytganda, biz ham mamlakatimizni progressiv va innovatsion rivojlantirishimiz zarur. Buning uchun olimlar, tadqiqotchilar Vatanga xizmat qilishi, ilmiy-texnologik ishlamalarini barcha sohalarda, ayniqsa, viloyatlarda joriy etishi kerak"*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Sh.M.Mirziyoev

**“Dunyodagi fanlar akademiyalari”.** Dayjest. - T.: 2022. 29-b.

“Dunyodagi fanlar akademiyalari”. Dayjest O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Ilmiy-texnik axborot markazi tomonidan tayyorlangan.

**Mualliflar jamoasi:**

Abduraxmonov I.Y.  
Turdikulova Sh.O'.  
Abduvaliyev A.A.  
Musayeva R.A.  
Barbu G.F.

**Texnik muharrir:**

Rayimjonov X.G'.

© O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Ilmiy-texnik axborot markazi , 2022 y.



Dunyoda fanlar akademiyasi tizimi	4
Evropadagi fanlar akademiyalari	9
Shimoliy Amerikadagi fanlar akademiyasi	13
Janubiy Amerikadagi fanlar akademiyalari	18
Afrikadagi fanlar akademiyalari	23
Avstraliya fanlar akademiyasi	25
Manbalar	27

# Dunyoda fanlar akademiyasi tizimi

Zamonaviy iqtisodiy yetakchilikni fan, texnologiyalar va innovatsiyalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ular jamiyatni o'zgartirishda qudratli kuch va omilga aylandi [1].

Davlat va jamiyatning to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi aql egalari bir joyda turib qolmaslik va taraqqiy etgan mamlakat bo'lish uchun ilm-fanni oldinga siljitishlari kerak. Ushbu maqsadda dunyoda maxsus "platformalar", ilmiy jamoalar, aynan esa Fanlar akademiyalari faoliyat ko'rsatadi.

Fanlar akademiyasi – bu xuddi shunday bir xil keng mavzularga qiziqadigan va ilmiy bilimlarni targ'ib qilish uchun o'z tadqiqot va g'oyalarini bir-birlari bilan o'rtoqlashadigan ziyorilar, odatda tadqiqotchilar guruhi [2].



Zamonaviy ilmiy akademiyalar o'z qiziqishlarini tadqiq etuvchi kichik xususiy guruhlardan bugungi kunda bizga ma'lum bo'lgan ulkan institatlarga qadar rivoj topdi. Ilm-fanning eng fundamental kashfiyotlaridan ba'zi birlari birinchi akademiyalarning qo'llab-quvvatlashi tufayli amalga oshirildi. Bugungi kunda ushbu tashkilotlar yangi kashfiyotlarni rag'batlantirish, ilm-fanning muhimligini targ'ib qilish va jamoatchilikka ilmiy mavzular bo'yicha bilim berishni davom ettirmoqda.

Akademiyalar a'zolari jahon ilm-fani rivojiga salmoqli hissa qo'shgan atoqli olimlar va fan tashkilotchilaridan tanlab olinadi [3].

A'zolikning eng taniqli maqomlari:

- haqiqiy a'zo (jismoniy shaxslar uchun ko'proq "akademik" sinonimi ishlataladi);
- muxbir a'zo;
- assotsiyalangan a'zo;
- faxriy a'zo (faxriy akademik);
- chet el (xorijiy) a'zosi;
- akademiya ad'yunkti [4].

# Dunyoda fanlar akademiyasi tizimi


Mamlakat	Akademiya	yil
Abxaziya	Abxaziya Respublikasi akademiyasi	Fanlar 1993
Argentina	Argentina Milliy fanlar akademiyasi	1869
Armaniston	Armaniston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi	1943
AQSh	AQSh Milliy fanlar akademiyasi	1863
Belarus	Belarus Milliy fanlar akademiyasi	1929
Bolgariya	Bolgariya fanlar akademiyasi	1869
Bosniya va Gersegovina	Bosniya va Gersegovina Fan va san'at akademiyasi	1951
Buyuk Britaniya	Tabiat to'g'risidagi bilimlarni rivojlantirish bo'yicha London qirollik jamiyatি Edinburg qirollik jamiyatি	1660 1783
Vatikan	Papalik fanlar akademiyasi	1847
Vengriya	Vengriya fanlar akademiyasi	1825
Gvatemala	Gvatemala tibbiyot, fizika va tabiiy fanlar akademiyasi	1945
Germaniya	Nemis fanlar akademiyasi	1652
Daniya	Daniya fan va adabiyot qirollik akademiyasi	1742
JAR	JAR fanlar akademiyasi	1996
Indoneziya	Indoneziya fanlar akademiyasi	1990
Kamerun	Kamerun fanlar akademiyasi	1990
Keniya	Keniya Milliy fanlar akademiyasi	1983
Qirg'iziston	Qirg'iziston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi	1954
Kolumbiya	Kolumbiya Aniq, fizika va tabiiy fanlar akademiyasi	1929
Latviya	Latviya fanlar akademiyasi	1946

# Dunyoda fanlar akademiyasi tizimi

Mamlakat	Akademiya	yil
Litva	Litva fanlar akademiyasi	1941
Malayziya	Malayziya fanlar akademiyasi	1994
Niderlandiya	Niderlandiya qirollik akademiyasi	1808
Ozarbayjon	Ozarbayjon Milliy fanlar akademiyasi	1945
Polsha	Polsha fanlar akademiyasi	1951
	Polsha bilimlar akademiyasi	1872
Portugaliya	Lissabon fanlar akademiyasi	1779
Rossiya Federatsiyasi	Rossiya fanlar akademiyasi	1991
Ruminiya	Ruminiya akademiyasi	1866
Sloveniya	Sloveniya fan va san'at akademiyasi	1938
Serbiya	Serbiya fan va san'at akademiyasi	1886
Tayvan	Sinika akademiyasi	1928
Tojikiston	Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi	1951
Turkiya	Turkiya fanlar akademiyasi	1993
Turkmaniston	Turkmaniston fanlar akademiyasi	2007
Turkiya	Turkiya fanlar akademiyasi	1993
Uganda	Uganda Milliy fanlar akademiyasi	2000
Ukraina	Ukraina Milliy fanlar akademiyasi	1918
	Ukraina Milliy agrar fanlar akademiyasi	1931
O'zbekiston	O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi	1943
Filippin	Filippin Milliy fan va texnika akademiyasi	1976
Fransiya	Fransiya fanlar akademiyasi	1666
Shvesiya	Shvesiya qirollik fanlar akademiyasi	1739
XXR	Xitoy fanlar akademiyasi	1949
Estoniya	Estoniya fanlar akademiyasi	1938
Yaponiya	Yaponiya fanlar akademiyasi	1879

# Dunyoda fanlar akademiyasi tizimi

Biroq akademiyalarning kuchi ular ilmiy jamoatchilik uchun nima qila olishlari emas, balki ular jamiyat va taraqqiyotda yetakchi rol o'ynash uchun olimlarni safarbar qila olishidadir [5]. Bugungi kunda dunyo bo'yicha olimlar soni 8,8 millionga yetdi, negaki tadqiqotlarga global sarf-xarajatlar iqtisodiyotga nisbatan tezroq o'sib bormoqda [6].



**1-rasm. - Yetakchi mamlakatlar bo'yicha tadqiqotchilar sonining dinamikasi (to'liq bandlik ekvivalentida ming kishi)**

2021 yilning iyun oyi oxirida "Iqtisodiyot Oliy maktabi" Milliy tadqiqot universiteti Statistika tadqiqotlari va bilimlar iqtisodiyoti instituti jahoning turli mamlakatlaridagi rasmiy statistikaga tayangan holda tadqiqotlarga sarf-xarajatlar bo'yicha yetakchi mamlakatlarning ma'lumotlarini e'lon qildi.

# Dunyoda fanlar akademiyasi tizimi

Mamlakat	Tadqiqot va ishlanmalarga ichki xarajatlar					
	milliy valyutalarning xarid qobiliyati pariteti bo'yicha hisoblashda	yalpi milliy mahsulotga	1 tadqiqotchiga hisoblashda (to'liq bandlik ekvivalentida)			
	mamlakat pozitsiyasi	mlrd.doll	mamlakat pozitsiyasi	%	mamlakat pozitsiyasi	ming doll
AQSh	1	657.5	9	3.07	2	390.7
Xitoy	2	525.7	14	2.23	10	249.2
Yaponiya	3	173.3	5	3.24	9	254.1
Germaniya	4	147.5	8	3.18	3	328.2
Koreya Respublikasi	5	102.5	2	4.64	14	238.0
Fransiya	6	72.8	15	2.19	15	231.7
Hindiston	7	58.7	45	0.65	32	171.8
Buyuk Britaniya	8	56.9	22	1.76	26	179.3
Rossiya	9	44.5	37	1.04	44	111.1
Tayvan	10	44.0	3	3.50	7	276.4
Italiya	11	38.8	26	1.45	13	241.3
Braziliya	12	36.3	34	1.16	17	225.1
Kanada	13	29.3	24	1.54	25	185.5
Ispaniya	14	24.9	31	1.25	30	172.8
Turkiya	15	24.2	35	1.06	27	178.9

**1-jadval. Milliy valyutalarning xarid qobiliyati pariteti bo'yicha hisoblashda tadqiqot va ishlanmalarga ichki xarajatlar hajmi bo'yicha yetakchi mamlakatlar: 2019\***

\* yoki ular bo'yicha ma'lumotlar mavjud bo'lgan yaqin yillar.

Ma'lumotlar olimlar soni, shuningdek tadqiqotlar va ishlanmalarga ichki xarajatlarning hajmi ortib borayotganini ko'rsatmoqda, shu munosabat bilan dunyoda tabiiy, texnik va gumanitar fanlarning eng muhim muammolari bo'yicha fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, shuningdek, ilmiy tashkilotlar va ta'lim muassasalari tomonidan bajarilayotgan fundamental ilmiy tadqiqotlarni muvofiqlashtirishda ishtirok etish kabi vazifalarni ado etuvchi Fanlar akademiyalari kabi oliy ilmiy organlarning faoliyat yuritishida zarurat kuzatilmoqda [7].

# Evropadagi fanlar akademiyalari

1660 yilda tuzilgan va 1662 yilda Qirollik xartiyasi bilan tasdiqlangan Buyuk Britaniyaning yetakchi ilmiy jamiyati - London Qirollik jamiyati (The Royal Society of London) Buyuk Britaniyadagi Milliy Fanlar Akademiyasi hisoblanadi. Bu dunyodagi eng qadimgi jamiyatlardan biri.

Jamiyatning asosiy maqsadi ilm-fan sohasidagi ilg'or tajribani rag'batlantirish, xalqaro hamkorlikni qo'llab-quvvatlash va ilm-fanning muhimligini hamma uchun namoyish etishdan iborat. Jamiyat fan tarixidagi eng fundamental, muhim va olamshumul kashfiyotlarning ba'zilarida jiddiy rol o'ynadi va uning olimlari ko'plab tadqiqot sohalarida fanga katta hissa qo'shishda davom etmoqdalar [8].



Jamiyat a'zolari safida taxminan 1450 nafar milliy va xorijiy a'zolar, shu jumladan 80 nafar Nobel mukofoti laureatlari mavjud. Oddiy toifadagi Qirollik jamiyati a'zoligiga saylana olmaydigan shaxslar faxriy a'zo sifatida saylanish huquqiga ega bo'lishi mumkin. Hozirgi kunda yetti nafar faxriy a'zo saylangan.

Jamiyat a'zolari London Qirollik jamiyatining mavjud a'zolari ovoz berishi bilan yakunlanuvchi fan sohasidagi ilmiy yutuqlar asosida ekspert baholash jarayoni orqali butun umrga saylanadi. Jamiyat har yili saylanadigan 21 nafar a'zodan iborat Kengash tomonidan boshqariladi. Kengashning barcha a'zolari jamoatchilik asosida ishlaydilar [9].



Jamiyat dunyodagi birinchi va eng qadimgi Philosophical Transactions ilmiy jurnalini nashr etadi. U noshir va muharrir sifatida faoliyat yuritgan Jamiyatning birinchi kotibi Genrix Oldenburg (taxminan 1619–1677) tomonidan 1665 yilning mart oyida tashkil etilgan. Oldenburg o'sha davrdagi tabiiy falsafiy ta'limotlarni Qirollik jamiyatining faoliyatiga va o'zining tilshunos va ilmiy muharrir sifatidagi mahoratini ilm-fanni targ'ib qilishga mo'ljallangan matbuotning yangi shakliga aylantirdi [10].

# Evropadagi fanlar akademiyalari



Niderlandiya qirollik fanlar akademiyasi (Koninklijke Nederlandse Akademie van Wetenschappen) 1808 yilda Niderlandiya hukumati huzuridagi maslahat organi sifatida tashkil etilgan. Uning tarkibiga taxminan 500 nafar akademiklar, qariyb 130 nafar xorijiy a'zolar va taxminan xuddi shuncha muxbir a'zolar kiradi. Akademiyani 4 yilga saylanadigan prezident boshchiligidagi Kengash boshqaradi.

Akademiya tadqiqot infratuzilmasini ta'minlovchi 13 ta milliy tadqiqot institutlari uchun javob beradi. Institutlar gumanitar, ijtimoiy va biologiya fanlari sohasida ishlaydi. Institutlar golland va xalqaro tadqiqotlarda yetakchi rol o'ynaydi. Ular milliy ekspert markazlari sifatida xizmat qiladi, shuningdek ularning ko'pchiligi butun dunyoga ma'lum bo'lgan kolleksiyalar va/yoki tadqiqot markazlarini boshqaradi va ulardan foydalanish imkonini taqdim etadi [11].



Akademiya ustav majburiyatlariga muvofiq [12]:

- munozara uchun forum va bilimlar bilan almashish uchun platforma bo'lib xizmat qiladi;
- milliy tadqiqot institutlarini boshqaradi va ular uchun siyosatni o'rnatadi;
- konsultativ hisobotlar va prognozli tadqiqotlarni chiqaradi;
- fan va ta'lim bilan bog'liq masalalar bo'yicha xorijiy va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;
- mukofotlarni beradi va o'z nomidan yoxud unga ishonib topshirilgan fond nomidan moliyalashtirishning bir qator dasturlarini amalga oshiradi.

Bundan tashqari, Akademiyadan har to'rt yilda bir marotaba strategik reja ishlab chiqish talab etiladi. Akademiya 2021-2025 yillarga mo'ljallangan o'z siyosatini "Bilimlar asosida! 2021-2025 yillar uchun strategik kun tartibi" hujjatida ta'riflaydi.

# Evropadagi fanlar akademiyalari

Har yili Akademiya prezidenti yillik murojaatni taqdim etadi, unda u umuman olganda ilm-fan va xususan Akademianing holati haqidagi o‘z fikrlarini bayon etadi [13].

Fransiya fanlar akademiyasi  
(Academiedessciences) 1666 yilda  
Lyudovik XIV tomonidan tashkil etilgan.



Uning birlamchi funksiyasi fransuz olimlarini himoya qilish va ilhomlantirishda ifodalangan [14]. Akademiyani prezident boshchiligidagi "maxfiy qo‘mita" boshqaradi. Bugungi kunda eng buyuk fransuz va xorijiy olimlar orasidan tanlab olingan 277 nafar a’zo, 122 nafar xorijiy xodimlar va 63 nafar muxbir a’zolardan iborat Fanlar akademiyasi fanlararo va sezilarli darajada xalqaro maydon uchun ochiq hisoblanadi [15].

Akademiklar: fizika-matematika fanlari, Koinot to‘g‘risidagi fan, kimyoviy, biologik va tibbiy fanlar bo‘limlariga bo‘linadi. Quyidagilar:

- 2021 yilgi fizika bo‘yicha Nobel mukofoti sovrindori – Jorjio Parizi;
- 2021 yilgi Balsan mukofoti sovrindori – Tibo Damur;
- 2021 yilgi nevrologiya sohasida Gruber mukofoti sovrindorlaridan biri – Kristin Peti;
- 2021 yilgi Eduard Rayn fondi mukofoti sovrindori – Deni LeBian va ko‘plab boshqalar akademiklar sirasiga kiradi.

Fanlar Akademiyasi:

- eng yuqori darajada fikrlar almashinuviga ko‘maklashish maqsadida ilmiy jamoatchilik tomonidan konferensiyalarni tashkil etish;
- olimlarning ishi uchun mukofotlar va medallarni berish yo‘li bilan ularni munosib e’tirof etish maqsadida eng yaxshi olimlarni ajratib ko‘rsatish;
- xalqaro ilmiy hamjamiyatda bilimlarni tarqatishga hissa qo‘shadigan Fanlar akademiyasining ma’ruzalarini chop etish yo‘li bilan kashfiyotlar uchun yanada qulay muhitni rivojlantirishga qaratilgan qat’iy harakatlarni amalga oshiradi [16].

2016 yilda Akademiya o‘zining 350 yilligini nishonladi.

# Evropadagi fanlar akademiyalari

Chexiya Fanlar akademiyasi  
(CzechAcademyofSciences) va uning institutlarining asosiy vazifasi keng ko'lamdagi

tabiiy, texnik, ijtimoiy va gumanitar fanlar bo'yicha tadqiqotlar olib borish hisoblanadi. Bu

tadqiqot, tor ixtisoslashgan yoki o'z xarakteri bo'yicha fanlararo bo'ladimi, shuningdek ham

chex jamiyatni, ham milliy madaniyatning muayyan ehtiyojlarini hisobga olgan holda, xalqaro darajada ilmiy bilimlarni rivojlantirishga qaratiladi [17].



Akademik institutlarning tadqiqotchilari ham ta'lilda, xususan, yosh olimlar uchun doktorantura dasturlari doirasida ishtirok etishadi, shuningdek universitetlarda dars berishadi. Akademiya amaliy tadqiqotlar va sanoatning hamkorligiga xizmat qiladi.

Akademianing oliy o'zini-o'zi boshqarish organi Akademiya Majlis bo'lib, uning uchdan

ikki qismini Akademianing barcha institutlari (51) ning vakillari, qolgan uchinchi qismi esa universitetlar, davlat boshqaruvi, ishbilarmon doiralarning vakillari va boshqa taniqli arboblarni tashkil etadi.

Akademianing ijroiya organi Akademiya Kengashi bo'lib, unga Akademiya Prezidenti rahbarlik qiladi. Fan bo'yicha Kengash birinchi navbatda Akademianing ilmiy siyosatini belgilash bilan shug'ullanadi. Akademianing ushbu har bir organlariining a'zolari to'rt yil muddatga saylanadi.

Akademianing baholash qo'mitalari Akademianing alohida institutlarining tadqiqotlari va tadqiqot maqsadlarining sifatini mustaqil baholashni o'tkazadilar.



# Shimoliy Amerikadagi fanlar akademiyasi



AQSh Milliy fanlar akademiyasi (National Academy of Sciences) 1863 yilda ilmiy masalalar bo'yicha hukumatning mustaqil maslahatchisi sifatida tashkil etilgan. MFA Milliy tadqiqot kengashi (National Research Council), Milliy muhandislik akademiyasi (National Academy of Engineering) va Tibbiyot instituti (Institute of Medicine) bilan

birgalikda AQShning Milliy akademiyalari tizimini tashkil etadi [18].

2200 nafar amerikalik olimlar va 400 nafar chet ellik olimlar MFA ning haqiqiy a'zolari hisobalandi. MFAning taxminan 500 nafar hozirgi va marhum a'zolari Nobel mukofotiga sazovor bo'lishgan [19]. "2020-2025 yillarga mo'ljallangan strategik reja" da Akademiya o'z oldiga 3 ta asosiy maqsadni qo'ygan:

- 1-maqsad: Eng muhim ijtimoiy va global muammolarni hal qilish;
- 2-maqsad: Jamoatchilikni tushunish va fanni tan olishni yaxshilash;
- 3-maqsad: Ilmiy madaniyatni takomillashtirish [20].

MFA matematika, astronomiya, fizika, texinka, kimyo, geologiya, botanika, zoologiya, fiziologiya, mikrobiologiya, antropologiya, psixologiya, geofizika, biokimyo, amaliy biologiya, amaliy fizika-matematika fanlari, tibbiy fanlar, genetika, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy fanlar kabi 19 ta bo'linmalarga ega [21].

MFA dasturi nafaqat olimlar, balki ilm-fanga aloqador bo'lmagan kishilar uchun ham madaniy-ma'rifiy voqealarga boy. MFA muntazag ravishda san'at, ilm-fan, tibbiyot, muhandislik va ommaviy madaniyat o'rtaсидаги кешишмаларни органадиган турли xil tadbirlarni o'tkazadi. Ushbu tadbirlar badiiy ko'rgazmalar, ma'ruzalar, filmlar, konsertlar, DC ArtScience kechki uchrashuvlari va afroamerika tarixi dasturini o'z ichiga oladi [22].



# Shimoliy Amerikadagi fanlar akademiyasi

Kanada san'at, gumanitar fanlar va fanlar akademiyasi sifatida ham ma'lum bo'lgan Kanada qirollik jamiyati (Société royale du Canada) – kanadalik olimlar, rassomlar va gumanitar, ijtimoiy hamda tabiiy fanlar sohasidagi olimlarning eng qadimgi ikki tilli tashkiloti [23].



Jamiyat Kanadada yoki ilmiy tadqiqotlarning to'liq spektrini qamrab oluvchi boshqa bir joydagi kamdan kam organlardan biri bo'lib qolmoqda va ayni paytda: San'at va gumanitar fanlar akademiyasi, Ijtimoiy fanlar akademiyasi va Fanlar akademiyasi kabi uch ikki tilli akademiyalar ko'rinishida tashkil etilgan. Jamiyat a'zosi etib saylanish yuksak

professional mukofot bo'lib qolmoqda. Har yili 75 nafargacha nomzod saylanishi mumkin. Hozirgi kunda 2560 nafarga yaqin stipendiatlar bor.

1883 yildan beri har yillik uchrashuvlar oxirgi 40 yil davomida Kanada bo'y lab markazlarda o'tkaziluvchi milliy va xalqaro simpoziumlar, seminarlar va mintaqaviy uchrashuvlar, 1980 yildan beri esa - kunning muhim mavzulari bo'yicha loyihalar va komissiyalar dasturi bilan to'ldirildi.

Akademiyalarga qo'shimcha qilib, 2014 yilda Jamiyat Yangi olimlar va rassomlar kollejini ta'sis etdi. Kollej o'z doktorlikdan keyingi dasturini yakunlagandan so'ng 15 yil davomida yetakchi ilmiy, tadqiqot yoki badiiy yutuqlarni namoyish etishni boshlagan shaxslarni tan oladi. Kollej a'zolari yetti yil muddatga saylanadi. Hozirda 400 nafardan ortiq a'zo bor [24].



# Shimoliy Amerikadagi fanlar akademiyasi

Kanada qirollik jamiyati medallar va sovrinlar bilan taqdirlagan holda tadqiqotlar va innovatsiyalardagi ulkan yutuqlarni qayd etadi:

- Elis Uilson mukofoti – doktorlikdan keyingi darajada o‘z karerasini boshlayotgan san’at va gumanitar fanlar, ijtimoiy fanlar yoki tabiiy fanlar sohasida buyuk akademik malakaga ega bo‘lgan uch nafar ayollarga beriladi;
- Benkroft mukofoti – geologiya sohasidagi o‘qitish va tadqiqotlar uchun beriladi;
- Flavel medali – biologiya fanlari sohasidagi ulkan yutuqlari uchun beriladi;
- J. B. Tirrell tarixiy medali – Kanada tarixidagi buyuk ish uchun beriladi.

Jon L. Singe mukofoti – matematika fanlarining har qanday sohalaridagi buyuk tadqiqotlarning tan olinishi [25].

LA SRC PRÉSENTE  
LES LAURÉATS DES  
DISTINCTIONS DE 2021!

#rscBRAVOSrc



# Shimoliy Amerikadagi fanlar akademiyasi

Meksika fanlar akademiyasi (The Mexican Academy of Sciences) - 1959 yilning 12 avgustida tashkil etilgan va dastlab Meksika ilmiy tadqiqotlar akademiyasi deb nomlangan. Meksika fanlar akademiyasining maqsadlari [26]:

- milliy va xalqaro ilmiy hamjamiyat o'rtasidagi muloqotni rag'batlantirish;
- Meksika ilmiy hamjamiyatini rivojlantirish va birlashtirishga xizmat qilish;
- ishlab chiqarish va bilimlarni Meksikaga tegishli muammolarni hal qilishga yo'naltirish;
- aholining turli qatlamlarida ilmiy tadqiqotlarni rag'batlantirish;
- Meksika olimlarining milliy va xalqaro tan olinishiga erishish;
- zamonaviy va adolatli jamiyatni qurishga xizmat



Bugungi kunda Meksika fanlar akademiyasi 2000 nafardan ortiq a'zoga ega va uchta sohaga bo'lingan: 1. Aniq fanlar (astronomiya, kimyo, Yer haqidagi fanlar, muhandislik, matematika va fizika); 2. Tabiiy fanlar (qishloq xo'jaligi fanlari, biologiya va tibbiyot); va 3. Ijtimoiy va gumanitar fanlar. Matematika seksiyasida 100 nafardan ortiq a'zo bor.

# Shimoliy Amerikadagi fanlar akademiyasi

Akademianing bir qator tadbirlari matematika bilan bog'liq. Masalan, "Maktabingizdagi fan" dasturi. Dasturning maqsadi qiziqish uyg'otadigan va faol o'rghanishni rag'batlantiradigan eksperimental amaliyotlarni o'tkazish va o'qituvchilar bilan yanada yaqin hamkorlik qilish vositasida bolalar va yoshlarning qiziqishini uyg'otuvchi an'anaviy usullarning muqobillarini qo'llagan holda matematika va tabiiy fanlarni o'qitish standartlarini yaxshilashdan iborat.



Boshlang'ich va noto'liq o'rta maktab o'qituvchilari kurslar, maxsus ishlab chiqilgan o'quv materiallari, konferensiylar va ularning o'qituvchilik faoliyati uchun foydali elementlarni o'z ichiga olgan veb-sahifalar yordamida tayyorgarlikdan o'tishadi.

2002 yildan hozirgi kunga qadar dastur bo'yicha 2820 ta umumta'lim maktabalaridan 7086 nafar o'qituvchilar tayyorlandi. Ushbu dastur bo'yicha 560 nafar bakalavriat talabalari o'z ijtimoiy ishlarini bajardilar.

# Janubiy Amerikadagi fanlar akademiyalari



Argentina milliy fanlar akademiyasi (Academia Nacional de Ciencias) 1869 yilda tashkil etilgan. Bu milliy hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan ilmiy korporatsiya va mamlakatning birinchi milliy akademiyasi [27]. Akademiya a'zolari fan rivojiga qo'shgan hissalari bilan ajralib turgan olimlar orasidan Akademiya Nizomiga muvofiq saylanadilar.

Muassasa ilm-fanning rivojlanishi, taraqqiyoti va tarqalishiga xizmat qilish, mamlakatdagi barcha ilmiy fanlarni o'rGANISHNI rag'batlantirish, maqolalar chop etish va konferensiylar orqali tadqiqot natijalarini chop etish va Milliy hukumat huzuridagi maslahat kengashi sifatida faoliyat yuritishga harakat qiladi.



Jamiyatning madaniy mustaqilligida fanning ahamiyatini hisobga olgan holda Akademiya o'z sa'y-harakatlarini kishilar hayotining dastlabki bosqichlarida fanga bo'lgan qiziqishni rivojlantirishga yo'naltiradi.

Akademiya huzurida turli qo'mitalar faoliyat yuritadi. Masalan, Rivojlanish bo'yicha qo'mita. Mazkur qo'mitaning maqsadi, ayniqsa, bolalar va yoshlar orasida ularning ilmiy izlanishlarga bo'lgan qiziqishini uyg'otishdan iborat. Qo'mita ilmiy konferensiyalarni tashkil etishga ham ko'maklashadi [28].



Akademiya ilmiy mahsulotlar uchun mukofotlar beradi; bolalar va o'smirlarning fanga qiziqishini oshirish uchun yoshlar tanlovlарини tashkil etadi; boshqa akademiyalar va ilmiy muassasalar bilan ilmiy va madaniy aloqalar, shuningdek Akademiya kutubxonasi kolleksiyasini doimiy ravishda boyitadigan maqolalar almashinuvini qo'llab-quvvatlaydi.

# Janubiy Amerikadagi fanlar akademiyalari



Chili fanlar akademiyasi

(AcademiaChilenadeCiencias) 1964 yilning 21 oktabridagi hukumat qonuniga muvofiq boshqa uchta: tibbiyot, tasviriy san'at, siyosiy va ma'naviy fanlari akademiyalari birgalikda Chili institutining bir qismi sifatida tashkil etilgan [29]. Akademianing vazifalari quyidagilardan iborat:

- fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlarga homiylik qilish, qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish;
- ilmiy bilimlarni ma'ruzalar, konferensiylar, simpoziumlar va boshqa forumlar orqali tarqatish, kitoblar, jurnallarni chop etish;
- milliy va xalqaro ilmiy uchrashuvlar va kongresslarga homiylik qilish;
- ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy maqolalar uchun mukofotlar va boshqa rag'batlantirishlarni ta'sis etish;
- tabiiy fanlar bo'yicha ixtisoslashtirilgan kutubxonani yaratish;
- Chili olimlarining xalqaro ilg'or tajriba markazlariga tashriflari, shuningdek, xorijiy olimlarning Chiliga tashriflariga homiylik qilish va ushbu maqsadlar uchun stipendiyalar taqdim etish;
- ilmiy darajalarni olish maqsadida o'qish uchun stipendiyalar taqdim etish;
- ularni tarqatish uchun, shu jumladan muayyan umum davlat muammolarni hal qilishda foydalanish uchun tadqiqotlar, ilmiy ishlamalarni o'tkazish;
- barcha darajalarda aniq va tabiiy fanlarni o'qitishning maksimal mumkin bo'lgan darajasiga ko'maklashish;
- shunga o'xshash maqsad va vazifalarga ega milliy va xalqaro institutlar bilan rasmiy aloqalarni qo'llab-quvvatlash.

# Janubiy Amerikadagi fanlar akademiyalari

Chili fanlar akademiyasi yosh olimlar, ayniqsa yosh ayol tadqiqotchilarni qo'llab-quvvatlaydi:

- tabiiy va aniq fanlar bo'yicha eng yaxshi doktorlik dissertatsiyasi uchun har yili ikkita mukofot beriladi;
- Akademiya tabiiy va aniq fanlar sohasida 40 yoshgacha buyuk ayollarga yiliga ikkita mukofotni topshiradi;
- Akademiya ular FrontiersScience guruhiga kirishlari uchun 3 yil muddatga 15 nafar yosh buyuk olimlarni sayladi [30].



# Janubiy Amerikadagi fanlar akademiyalari

Ekvador fanlar akademiyasi (AcademiadeCienciasdelEcuador) - ilmiy va jamoat maqsadlarida yaratilgan tashkilot hisoblanadi. Uning maqsadi tadqiqotlarni ilgari surish hamda kommunikatsiyalar, maslahatlar yoki ilmiy tadqiqotlar uchun mo'ljallangan inson salohiyati va resurslarini yaxshilash uchun boshqa vositalar orqali ilmiy axborot almashinuvini yengillashtirishdan iborat [31].



Akademiya Fanlar akademiyalarining global tarmog'i (The Global Network of Science Academies IAP) a'zosi hisoblanadi, u Amerika Fanlar akademiyalari tarmog'i (American Network of Academies of Sciences IANAS) tomonidan ham tan olingan.

# Janubiy Amerikadagi fanlar akademiyalari

Tadqiqot yo‘nalishlari:

- Tibbiyot;
- Biologiya va kimyo;
- Atrof-muhit to‘g‘risidagi fanlar;
- Matematika va fizika;
- Hujayra va molekular biologiya, mikrobiologiya;
- Organizmlar biologiyasi;
- Yer va sayyora fanlari.

Ekvadorni ilmiy rivojlantirishda mukammallikka tayanadigan Akademiya ekvador millatidan, Ekvadorda yashayotgan yoki yashamaydigan, ilm-fan rivojiga salmoqli hissa qo‘sghan mamlakatda doimiy yashash joyi bo‘lgan chet elliklardan, tadqiqotlarning turli sohalarida 58 nafr yuqori darajadagi olimlardan iborat ko‘p tarmoqli jamoaga ega [32].



# Afrikadagi fanlar akademiyalari



Afrika fanlar akademiyasi

(The African Academy of Sciences) 1985 yilda mashhur entomolog Tomas Odxiamboning taklifi bilan tashkil etilgan [33]. Uning asosiy maqsadlari Afrikadagi fan, texnologiyalar va innovatsiyalar (FTI) sohasida strategiyalar va siyosatni shakllantirish uchun konsultativ va analitik funksiyalarni taqdim etish, shuningdek,

fan, texnologiyalar va innovatsiyalar (FTI) sohasida muhim dasturlarni amalga oshirish hisoblanadi.

Akademiya faoliyati beshta strategik sohalar: atrof-muhit va iqlim o'zgarishi, sog'lioni saqlash va farovonlik, tabiiy fanlar, siyosat va boshqaruv, ijtimoiy va gumanitar fanlarga qaratilgan [34].

Akademiyada 4 ta platformalar mavjud:

AAS OpenResearch — Akademiya tomonidan moliyalashtiriluvchi va affillangan tadqiqotchilarga darhol va to'siqsiz maqola chop etish imkonini beradigan Akademianing ochiq foydalanishdagi innovatsion platformasi.

Akademianing dasturi bo'linmasi hisoblangan Afrikada ilm-fan sohasida ilg'or tajribani jadallashtirish uchun alyans (The Alliance for Accelerating Excellence in Science in Africa AESA) Afrika ittifoqi taraqqiyot agentligi (UDA-NEPAD agentligi) bilan hamkorlikda yaratilgan. AESA moliyalashtirishni ta'minlaydi va Afrikadagi FTI dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni jadallashtirish uchun kun tartibini belgilaydi.



Afrika tadqiqotlari va innovatsiyalari koalitsiyasi (The Coalition for African Research and Innovation CARI) - bu Akademiya va uning hamkorlari bilan birgalikda Afrikadagi FTI dasturlarini tezlashtirish uchun yaratilgan barqaror rivojlanish platformasini o'zida namoyon qiladi.

# Afrikadagi fanlar akademiyalari

Dunyo bo‘ylab grant moliyalashtirishni moliyaviy boshqarishni standartlashtirish, soddalashtirish va kuchaytirish uchun — GoodFinancialGrantPractice standarti — innovations va integratsiyalangan vosita Global grant hamjamiyati (The Global Grant Community) ning yadrosi hisoblanadi.



Hozirgi vaqtida 2018 yildan 2022 yilgacha bo‘lgan besh yillik strategik rejalashtirish amalga oshirilmoqda, unda hamkorlik munosabatlarini o‘rnatish, ilmiy taraqqiyotni rag‘batlantirish va odamlarning ta’limi va o‘sishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

# Avstraliya fanlar akademiyasi



Avstraliya fanlar akademiyasi (The Australian Academy of Science) mustaqil, nufuzli va obro'li ilmiy maslahatlarni taqdim etadi, xalqaro ilmiy hamkorlikka xizmat qiladi, jamoatchilikning xabardorligi va ilm-fanni tushunishishini oshiradi, shuningdek Avstraliya fanidagi ilg'or yutuqlarni himoya qiladi, nishonlaydi va qo'llab-quvvatlaydi [35].

Akademiya ilm-fan va tadqiqotlarga qo'shgan ulkan hissalarini uchun saylangan shaxslarning notijorat tashkiloti hisoblanadi. Akademiya asoschi prezident sifatida buyuk fizik Mark Olifant boshchiligidagi London qirolik jamiyatining avstraliyalik a'zolari tomonidan 1954 yilning 16 fevralida tashkil etilgan. Unga hukumat ma'qullashi bilan Akademiyani mustaqil organ sifatida ta'sis etuvchi Qirollik xartiyasi taqdim etildi.

Avstraliya fanlar akademiyasining qarashi ilm-fandagi mukammallikka intiluvchi, ilmiy yutuqlarga amal qiluvchi va ularning afzalliklaridan foydalanuvchi ilmiy xabardor hamjamiyatni yaratishda ifodalanadi.

Akademiya innovatsion ta'limga dasturlarini taqdim etish, shuningdek quyidagilar hisobiga fanni qadrlaydigan yanada xabardor jamoatchilikni ta'minlashga intiladi:

- keng global onlayn auditoriya uchun yuqori sifatli, qiziqarli va informativ ilmiy kontentni yaratish;
- doimiy moliyalashtirish bilan tabiiy va matematika fanlari bo'yicha integratsiyalashtirilgan maktab o'quv dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- Avstraliya bo'ylab ilmiy tadbirlar o'tkazish;
- davlat ahamiyatiga ega bo'lgan mavzu bo'yicha yillik ilmiy simpoziumni o'tkazish.

# Avstraliya fanlar akademiyasi


Akademiya xilma-xillik, xolislik va ilmiy sektorda ishtirok etish sohasida milliy yetakchiga aylanish, shuningdek quyidagilar hisobiga olimlarning yangi avlodimkoniyatlarini kengaytirishga harakat qiladi:

- mustaqil va barqaror tashkilot sifatida "Avstraliyada gender tengligi bo'yicha fan" ("TheScienceinAustraliaGenderEquity" SAGE) tashabbusi.
- "TheWomenin STEM DecadalPlan" o'n yillik rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- eng yaxshi va yorqin olimlarga mukofot va grantlarni taqdim etish;
- tub xalqlar fan dasturi ("IndigenousScienceAgenda") ni ishlab chiqish uchun tub xalqlar jamoalari bilan ishslash;
- Boshlang'ich va o'rta guruh tadqiqotchilari forumi (Early- andMid-CareerResearcherEMCR) ni qo'llab-quvvatlash [36].



1. Как развивать Академию наук? //  
[https://aif.ru/amp/society/education/kak\\_razvivat\\_akademiyu\\_nauk](https://aif.ru/amp/society/education/kak_razvivat_akademiyu_nauk)
2. Science Philosophy And Practice: Scientific Academies, Institutes, Museums, And Societies // <https://www.encyclopedia.com/science/science-magazines/science-philosophy-and-practice-scientific-academies-institutes-museums-and-societies>
3. Международная ассоциация академий наук // <http://www.int-maan.by/rus/polozhenie.pdf>
4. Академия наук //  
[https://ru.m.wikipedia.org/wiki/%D0%90%D0%BA%D0%B0%D0%B4%D0%B5%D0%BC%D0%B8%D1%8F\\_%D0%BD%D0%BD%D1%83%D0%BA](https://ru.m.wikipedia.org/wiki/%D0%90%D0%BA%D0%B0%D0%B4%D0%B5%D0%BC%D0%B8%D1%8F_%D0%BD%D0%BD%D1%83%D0%BA)
5. The importance of academies of science //  
<https://www.interacademies.org/news/importance-academies-science>
6. Number of scientists worldwide reaches 8.8M, as global research spending grows faster than the economy // <https://sciencebusiness.net/news/number-scientists-worldwide-reaches-88m-global-research-spending-grows-faster-economy>
7. Академия наук // <https://didacts.ru/termin/akademija-nauk.html>
8. Mission and priorities // <https://royalsociety.org/about-us/mission-priorities/>
9. Устройство и функции академий наук в ряде зарубежных стран //  
<https://ria.ru/20130627/946256158.html>
10. About Philosophical Transactions // <https://royalsocietypublishing.org/rstl/about>
11. The Academy Institutes //  
[https://www.knaw.nl/en/institutes/overzicht?set\\_language=en](https://www.knaw.nl/en/institutes/overzicht?set_language=en)
12. The Academy's duties // <https://www.knaw.nl/en/about-us/duties>
13. The Academy's policy // <https://www.knaw.nl/en/about-us/policy>
14. Французская Академия наук // <https://dic.academic.ru/dic.nsf/ruwiki/303862>
15. Les membres de l'Académie des sciences // <https://www.academie-sciences.fr/fr/Table/Membres/Membres-a-la-une/>
16. Encourager la vie scientifique // <https://www.academie-sciences.fr/fr/Encourager-la-vie-scientifique/encourager-la-vie-scientifique.html>
17. Mission of the CAS // <https://www.avcr.cz/en/about-us/mission-of-the-cas/>

18. Устройство и функции академий наук в ряде зарубежных стран //  
<https://ria.ru/20130627/946256158.html>
19. Mission // <http://www.nasonline.org/about-nas/mission/>
20. Strategic Plan for the national Academy of Sciences: 2020-2025 //  
<http://www.nasonline.org/about-nas/nas-strategic-plan/2025-strategic-plan.pdf>
21. Национальная академия наук США //  
<https://www.booksite.ru/fulltext/1/001/008/080/522.htm>
22. About cultural programs // <http://www.nasonline.org/programs/cultural-programs/>
23. Royal Society of Canada //  
<https://www.thecanadianencyclopedia.ca/en/article/royal-society-of-canada>
24. About Us // <https://rsc-src.ca/en/about>
25. Awards & Excellence // <https://rsc-src.ca/en/awards-excellence>
26. About the Mexican Academy of Sciences, Mexican Academy of Sciences //  
<http://amc.edu.mx/amcen/index.php/about>
27. The National Academy of Sciences of Argentina // <https://www.anc-argentina.org.ar/en/institucional/>
28. Internal Organization // <https://www.anc-argentina.org.ar/en/institucional/organizacion-interna/>
29. Academia Chilena de Ciencias //  
<https://www.interacademies.org/organization/academia-chilena-de-ciencias>
30. Missions // [https://www.iybssd2022.org/en/dt\\_team/chilean-academy-of-sciences/](https://www.iybssd2022.org/en/dt_team/chilean-academy-of-sciences/)
31. Academia de Ciencias del Ecuador // <https://academiadecienciascuador.org/>
32. MIEMBROS DE LA ACADEMIA //  
<https://academiadecienciascuador.org/miembros/>
33. Африканская академия наук // <https://clck.ru/aoB47>
34. Transformed lives on the continent through science //  
<https://www.aasciences.africa/about>
35. The Academy // <https://www.science.org.au/about-us/academy>
36. Strategic plan // <https://www.science.org.au/about-us/academy/strategic-plan>



O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi  
Ilmiy-texnik axborot markazi

Toshkent - 2022 y.